

РЕЗЮМЕ. Мазкур мақолада муаллиф ономастикада ҳозирги кунда долзарб масалалардан бири – сўз ва топоним ҳодисаси тўғрисида фикр юритган. Сўз лексик маънога эга бўлади. Сўз маъносининг тарихий ўзгаришларга ижтимоий учраши барча тилларда ҳам мавжуд, сабаби у одамзод жамиятидаги ўзгаришларга боғлиқ бўлади.

РЕЗЮМЕ. В данной статье автор рассматривает одну из самых актуальных проблем современной ономастики - феномен слов и топонимов. Слово имеет лексическое значение. Сходство значения слова с историческими изменениями присутствует во всех языках, потому что оно зависит от изменений в человеческом обществе.

SUMMARY. In this article, the author examines one of the most pressing problems of modern onomastics - the phenomenon of words and toponyms. The word has a lexical meaning. The similarity of the meaning of the word with historical changes is present in all languages, because it depends on changes in human society.

ZARGARLIK LEKSIKASIGA OID ODATLAR VA RAMZIY IFODALAR TALQINI

(turkiy xalqlar misolida)

A.A.Erejepova – doktorant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: zargarlik, zeb-ziynat buyumlari, taqinchoqlar, bezak buyumlari, naqshlar, aqiq, xlorit, bilaguzuk.

Ключевые слова: ювелир украшения, ювелирные бижутерия, украшения, узоры, агат, хлорит, браслет.

Key words: jeweler, jeweler ornaments, patterns, agate, chlorite, bracelet.

Turkiy xalqlar madaniyati, yashash tarzi ma'lum ma'noda bir-biriga o'xshab ketadi. Chunki ular azal-azaldan yonma-yon yashab kelishgan. Shu bois ham har bir xalq tili, dini, tarixi, turmush tarzi va madaniyatida ham mushtarakliklarni kuzatishimiz mumkin. Bir-biri bilan hamohang tarzda hayot kechirganligi, bosib o'tgan yo'lining va madaniyatining bog'liqligi turkiy xalqlarni yanada yaqinlashtiradi.

Tilimiz leksikasida taqinchoq buyumlari atamaları lug'at zahiramizni boyitishdagi manbalarning biri vazifasini bajaradi. Ular qo'llanish darajasi cheklangan so'zlar bo'lishiga qaramasdan ijtimoiy hayotimizda tilla taqinchoqlarga oid ayrim odatlar hanuzgacha saqlanib qolgan. Ba'zi taqinchoqlarning ramziy ifodasi ham davrlar muhitiga mos ifodalangan. Ularning ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz.

Zargarlik – qadimdan badiiy hunarmandchilik sohasi sanalagan. U oltin, kumush, mis, qalay kabi rangli metallardan zeb-ziynat buyumlari (taqinchoqlar), bezak buyumlari yasash kasbi hisoblanadi. Zargarlar bezak buyumlari tayyorlashda quyish, bolg'alab (zarb berib) yasash, hallash (oltin va kumush suvi yuritish), o'yib yoki bo'rttirib naqsh yasash, bosma, zig'irak, sovotkori, qolipaki, shabaka kabi usullardan keng foydalanadi [6: 49].

Markaziy Osiyo xalqlarida XIX-XX asr boshlarida zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish barcha savdo va hunarmandchilik markazlarida keng tarqalgan. Har bir katta ovullarda o'zlarining zargari mavjud bo'lgan. Ular kelib chiqish madaniyatiga oid o'z mahsulotlari uchun kumush, oltin, bronza, serdolik va feruzaga oid toshlar, shuningdek, marjon, yirtqich hayvon va qushlarning tirnoq va qoziqtishlardan foydalanishgan.

Turkiy xalqlar madaniyati va zargarlik san'ati uslubini kuzatish jarayonida o'zining hashamati, simmetrik shakli va jonli aylana konturlari bilan ajralib turganligining guvohi bo'lamiz. Zargarlar ko'proq ayollarga xos zargarlik buyumlari va bolalar tumorlarini ishlab chiqarishgan. Erkaklar uchun, uzuklar, kamarlar va kamar to'qasi, qurol-yarog' qismlari va ot anjomlari yasashgan. Bu davrlarda barcha zargarlik buyumlari yovuzlikdan asrovchi va baxtga eltuvchi tumorlar hisoblangan.

Darvoqe, qoraqalpoq naqshlari va bezaklari ham juda qadimiy bo'lib, ular skiflar davriga borib taqaladi. Ular ibodat razmlari va totemlarni o'zida aks ettirgan. Bu zargarlik buyumlarining ko'pchiligi, masalan "shar-tuyme", "anshik", "burgutning tog' qo'yga hujumi"ni tasvirlayotgan chakka tumori (kiran) lar boshqa xalqlarda uchramaydi. Zargarlar yosh qizlar uchun katta ko'krak marjonlari ishlab chiqarishgan. Bular jumlasiga: jumalak-tuyme ("ilon izi") nomli belbog' naqshli, yarim tuxum shaklidagi bezaklar; baka tuyme (uslubga solingan baqalar); shar-tuyme (xoch shakliga ega Quyosh va Olov ramzi) lar kiradi. "Jaranglaydigan" tasma naqshli o'ngirmonshak bezagi yovuz ruhlarini haydash qobiliyatiga ega deb ishongan. U gumbazsimon shaklga ega edi, uning yumaloq asosidan jaranglaydigan yong'oqlar va rombli zanjirlar o'tkazib chiqilgan edi. O'ziga xos ayollar chakka sirg'asi silsineli-sirg'a, iyak ostida romb shaklidagi zanjir bilan bog'langan. Ushbu zanjir to'y kuni kelinning kiyinish marosimidan so'ng yechib qo'yilgan va shundan so'ng u soyau-sirg'a (bargsiz poya) deb atalgan.

Har bir turkiy xalqlarda e'zozlangan tilla buyumlar nomlanishi va foydalanish borasida ham ancha farqlarni sezishimiz mumkin. Masalan, aqiq qadimgi xalqlar orasida "musibat toshi" hisoblangan. Ushbu ta'rif aqiqning yo'l-yo'l, taram-taram turiga nisbatan ishlatilgan. Naql qilishlaricha, uni bo'yniga osib olgan odam yoki yasalgan idishdan suyuqlik ichganlar uyqusizlik kasaliga giriftor bo'ladi, deb ishonishgan. Abu Rayhon Beruniyning "Mineralogiya" asarida aqiq haqida quyidagicha izohlaydi: "Aqiq yunoncha "agates" so'zidan olingan bo'lib, "baxtli", "foydali" ma'nolarini anglatadi [2:157]. Bundan tashqari xalsedon ham qadimgi xalqlar orasida o'zining sehrli va davolovchi xususiyati bilan qadrlangan. Ushbu tosh sevgi va quvonchning ramzi hisoblangan. Shuningdek, ushbu qimmatbaho toshning shahri uning shifobaxsh xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Xalsedon, inson ruhiga hamjihatlik bergan, depressiya va uyqusizlikdan xalos qiladi, shuningdek, yomon ko'zdan, shikastlanishdan va hatto g'iybatdan himoya qiladi, deya ishonishgan.

Mazkur holat ayni damda ham xalqimiz orasida kuzatamiz. Masalan, zob (bo'qoq kasalligi)ga qarshi deb maxsus munchoqlarni taqib yurishi yoki qon bosimini me'yorida ushlab turadi, deya qo'lg'a maxsus bilaguzuk taqish holatlari haliyam saqlanib qolgan.

Xlorit – yunoncha "chloros" so'zidan olingan bo'lib, "yashil" degan ma'noni bildiradi. Ushbu qimmatbaho tosh tozalash xususiyatiga ega deb bilgan. Qadimgi xalqlar orasida u nihoyatda qadrlangan. Uni stressdan qutulishga va energiyani qayta tiklashga yordam beradi, yomon ko'z va zararni olib tashlaydi, deb ishonishgan [3: 9].

Bilaguzuk – qadimdan keng tarqalgan ayollarning bilakka taqadigan ziynat buyumi. Oltin, kumush, mis va boshqa metallardan quyib, bolg'alab ishlanadi, jilo beriladi, bosma, chizma, naqshlar bilan bezatilgan, qimmatbaho toshlar qadaladi. Ba'zan bezakda yozuvlar ham uchragan.

Qo'l uchun mo'ljallangan taqinchoqlar sirasiga kiruvchi bilaguzuklarning uchlari hayvon (ilon, buqa, baqa va boshqalar) boshi ko'rinishida bo'lib ilohiy ma'no kasb etgan, davrlar o'tishi bilan u o'zining dastlabki xususiyati (ilohiy ma'no)ni yo'qotib, faqat bezak vazifasini saqlab qolgan [1:22]. Uzuklar esa, qadimgi davrlar davomida shaxsiy zargarlik buyumi sifatida, savdo-sotiq munosabatlarida keng qo'llanilgan, jamiyatdagi ijtimoiy mavqei belgilab beruvchi va muhabbat ramzi vazifasini bajargan [1:34]. Ramzlar va belgilarning ildizi eng qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ularning ko'pchiligi ko'p asrlar davomida o'z tashqi qiyofasini saqlab qoladi, ba'zi hollarda lug'aviy ma'nosi o'zgaradi. Ularning paydo bo'lishida qadimgi davrda keng tarqalgan va e'tiqodlar, xususan totemizm, unumdorlik va boshqalar yordam beradi.

Qoraqalpoq ayollarining ko'ksini bezovchi zargarlik buyumlarida (haykel) shoxi tepaga qayrilgan buqa va shoxi pastga qayrilgan qo'y tasvirlari bilan bog'liq shoxsimon uchlari bo'lgan. "Xaykel" nomi ularning ajdodlarining sig'inishlari va totemizmdan kelib chiqqan. Kuchli buqa va serpusht qo'yni shoxi yovuz kuchlardan asrovchi xususiyatga ega deb hisoblangan va "oy buqasi" va "quyosh qo'yi" ramzlari sifatida ko'rigan. Boshqa turdagi qoraqalpoq zargarlik buyumlari, qal'a devori (boshpana ramzi) va gullagan uchbarg butasi (Umay ramzi - homilador ayol va bolalar himoyachisi) tasvirlarini o'zida aks ettirgan edi.

Zargarlik buyumining markazida tumor-kovak g'ilof bo'lib, uning ichida qadimdan "yovuzlik kuchlaridan asrovchi" igna saqlangan. Hududga Islom dini kirib kelganidan so'ng, ignaning o'rnini qog'ozda yozilgan duo egalladi. Xaykel kelin seping asosiy zargarlik buyumi hisoblangan. Uni kelinlar, farzand ko'rishgacha bo'lgan davr davomida tumor qilib yurishgan.

Bronza zargarlik bezagi anshik (ona) – qadimgi unumdorlik ma'budasi ramzi edi. Uni ona bo'lishga tayyorlanayotgan ayolga yovuz ko'zlardan asrovchi tumor sifatida to'y kuni berishgan. Bezak sxema tarzda ayol qomati va uning qornini tasvirlagan. Bundan tashqari, anshik, qadimiy totemlarni, qarama-qarshi turgan qush yoki qo'y, bo'ri boshini tasvirlagan. Ular ayolning farzand ko'rishini kunu - tun himoya qilishgan. Ushbu bezakda qadimiy ikki dunyo insonlar dunyosi va ruhlar dunyosining o'zaro tas'iri saqlanib qolgan edi. Qadimda turmushga chiqqan qoraqalpoq ayollarni oltin yoki kumush "arebek" deb nomlangan burun uzugini taqib yurishgan. Shunga o'xshash burun uzuklari turkmanlar, o'zbek-qipchoqlari, arablar va boshqalarda uchraydi. Qoraqalpoq ayollari qo'l bilaguzuklari qatorida: relyef bezakli og'ir quyma bilaguzuk (kuyma-bilezik) hamda "ilon izi" naqshli va ikki-uch qator serdolikli katta bilaguzuk (xasil-tasli-bilegizik)lar alohida ajralib turgan. Bilaguzukning uchi, yirtqich hayvonlarning tishlari va panjasini eslatadi.

O'zbek, qozoq, qoraqalpoq, turkman millatlari bir-birga qiz berib, qiz olib quda-andachilik rishtalarini bog'lab kelishi natijasida ularning urf-odatlaridagi o'zaro uyg'unlikni ko'rishimiz mumkin. Masalan, nikoh to'yida bo'lajak kelinchakka nikoh uzugi va zirak sovg'a qilinishi turkiy xalqlar orasida o'ziga xos an'ana tusini olgan.

Zirak taqish – qizlarning balog'atga yetgani belgisi sanalgan. Zirakli qizlar qayliq hisoblangan. Shu belgi vositasida o'sha qizning band qilingani, turmushga uzatilgani ma'lum bo'lib turgan. Qolaversa, zirak taqish odati o'zbek xalqi orasida ham, qardosh xalqlar orasida ham qadimdan mavjud.

Qo'lga, aniqrog'i, barmoqqa taqiladigan an'anaviy taqinchoqlardan biri uzukdir. Uni mamlakatimizning ko'pgina hududlarida "uzuk", qozoq, qoraqalpoqlarda "juzik", ba'zi joylarda "angushtarin" deb ham nomlanadi. Ilgarilari o'ziga to'q xonadon sohib va sohibalari, asosan, tildan yasalgan uzuk taqqan bo'lsalar, o'rtahol aholi ko'pincha kumushdan yasalgan uzuk taqishgan. Chunki

kumush oq rangda bo'lganligi bois, poklik belgisi sifatida e'tirof etilgan.

Afsonalarda aytilishicha, uzuk taqqan birinchi inson Jamshiddir. Shundan keyin barcha erkak-ayollarning uzuk taqib yurishi odat tusiga aylangan. Uzuk insoniyatning aql zakovati, hunarmandligi, qo'l kuchi bilan yaratilgan bebaho madaniy buyumlaridan biri sifatida qadrlangan. Shu bois ham u turmush tarzimizga singib ketgan. Hatto ularga qarab kishilarning ijtimoiy, moddiy ahvolini bilish ham mumkin bo'lgan. Chunki boy xonadonning ayollari qo'sha-qo'sha kumush, tilla, yoqut ko'zli uzuklar taqib yurishsa, kambag'al, nochor ayollar bor-yo'g'i bitta yoki ikkita jez, mis uzuk taqishga imkoniyatlari yetgan [4: 925].

Demak, qo'lga taqilgan uzukning miqdori va nimadan yasalgani uzuk egasining mavqeidan darak bergan.

Bundan tashqari uzukni qaysi qo'lga taqish ham e'tiborga olingan. Turmushga chiqqan ayollar nikoh uzugini o'ng qo'lga taqishgan. O'ng qo'lga taqilgan uzuk ayolning oilasi borligini bildirib turgan. Hatto ma'lum davrada ayollarning uzuk taqib yurishi ayniqsa majburiy bo'lgan. Shuning uchun qizlarga turmushga chiqadigan kuni kuyov tomonidan "to'y uzugi" taqdim etilgan. Hattoki ba'zi paytlarda uzuk taqmagan ayolning qo'li nopok hisoblanib, unga ovqat tayyorlash huquqi berilmagan [4: 926].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, taqinchoqlar insonga zeb berish bilan birga odamni ko'z tegishidan, nazar tushishidan saqlaydi.

Bugungi kunda xalqimiz tomonidan taqib yuriladigan taqinchoqlarning deyarli barcha turlari topilgan bo'lib ularga: bosh kiyimlar, bosh va bo'yin uchun mo'ljallangan taqinchoqlar, qo'l uchun mo'ljallangan taqinchoqlar kiradi. Ammo, ushbu taqinchoqlar yasaliish shakli, xomashyosiga va vazifasiga ko'ra bir-biridan tubdan farq qiladi. Taqinchoqlarning vazifasi inson tanasining qaysi qismiga taqilishi, yasaliish shakli va ularda ifodalangan belgilar va ramzlar uyg'unligi, xom ashyosi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Taqinchoqlarning ushbu vazifalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yoqotmay, ajdodlardan avlodlarga yetib kelgan bo'lib, faqat yasaliish shakli va xomashyosi jihatdan biroz farq qiladi. Xalqimiz orasida keng tarqalgan "Dunyoda bitta ayol bo'lsa ham, zargarga ish topilibdi", degan aforizm bekorga aytilmagan.

Adabiyotlar

1. Аскарлов А. Сапалитепа. –Ташкент: 1973. – С. 172
2. Абу Райхон Беруний. Китеб ал-Жамохир фи-Маърифат ал-Жавоҳир. – Тошкент: 2017. – Б. 488.
3. Сулайманова М.И. Ўзбек ва қирғизларнинг этномаданий ҳаётидаги тақинчоқ тақийша боғлиқ муштарак одатлар. Тилшуносликдаги замонавий ёндашувлар: муаммо ва ечимлар. –Андижон: 2020.
4. Расулова З.Ж. Ўзбек халқ сеҳрли эртақларида "ғаройиб буюмлар" (спецификаси, генезиси ва бадиияти). Фил.фан.ном.дисс. –Тошкент: 2012.
5. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. –Тошкент: 2004, 49-б.
6. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 3-жилд. –Тошкент: 2005.

РЕЗЮМЕ. Mazkur maqolada zargarlik leksikasiga oid odatlar va ramzlar, xususan, turkiy xalqlarning zargarlik buyumlarga xos taqinchoqlarning taqilishiga doir odatlar va ramzlar ifodasi talqin qilingan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье интерпретируются слова и символы, относящиеся к ювелирной лексике, в частности, слова и символы, относящиеся к ношению украшений, характерных для тюркских народов.

РЕЗЮМЕ. Abstract. In this article, are interpreted, the superstitions and symbols related to the jewelry lexicon, in particular, the words and symbols related to the wearing of jewelry typical of the Turkic peoples.

МУАЛЛИФ СЕМАНТИК ТИЗИМИНИ АНИКЛАШДА БАДИЙ КОНЦЕПТЛАРНИНГ РОЛИ

Ф.Р.Халимова – доцент

Самарқанд давлат чет тиллари институти

Таянч сўзлар: концепт, концептуал майдон, бадиий концепт, идиостил, семантик тизим.

Ключевые слова: концепт, концептуальное поле, художественный концепт, идиостиль, семантическая система.

Key words: concept, conceptual field, literary concept, idiostyle, semantic system

Бадиий концепт, даставвал, ёзувчининг бир асар ёки бутун ижодий фаолиятида мужассамлашган муаллиф концептуал майдонида миллий ёки индивидуал тарзда фаоллашган тафаккур бирлиги сифатида баҳоланади.

“Бадиий концепт” тушунчаси маркази “умумий асос”, “ядро” деб аталади. Унинг атрофидаги худуд ва сарҳадлар биргаликда концептуал майдонни ҳосил қилади. Унда маълум миллатнинг руҳи, тушунчаси, қарашлари акси мавжуд бўлади, чунончи, бу концептуал майдонни яратган шахс, яъни муаллиф маълум миллат вакилидир. Ёки аксинча, муаллиф ядро

атрофидаги сарҳад ва худудларни ўзининг семантик тизимидан келиб чиққан ҳолда ўзгача лисоний воситалар, услублар ва бошқа бирликлар ёрдамида тўлдириб, индивидуал концептуал майдонни ҳосил қилиши мумкин. Бу усул шоирлар ижодида, яъни поэтик матнда кўп қўзатилади.

Бадиий концепт муаллиф тафаккурида унинг ҳаётӣ тажрибалари, кўникмалари ва ҳиссиётлари асосида шаклланади. Кейин у бадиий контекстга жойлаштирилиб, муаллиф ва ўқувчининг концептни тушунишининг тўқнашуви асосида дискурс вазифасини